Sobirov Qahramon Saloyevich (Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi, "Tillarni o'qitish metodikasi" kafedrasi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent)

DRAMATIK MATNLARDA SARKAZMNING QO'LLANILISHI

Annotatsiya. *Maqolada sarkazmning dramatik matnning badiiy qatlamini boyitishi, uning ijtimoiy-ta'sirchanlik darajasini oshirishi, personaj nutqini jonli, ishonarli va ta'sirchan qilishi, tomoshabinga esa nafaqat voqealarni kuzatish, balki ulardan ma'naviy xulosa chiqarish imkonini berishi haqida ilmiy-amaliy xulosalar berilgan. O'zbek dramaturgiyasi namunalarida sarkazm badiiy maqsadga xizmat qiluvchi, dramatik konfliktni kuchaytiruvchi hamda tomoshabinga estetik zavq bag'ishlovchi muhim uslubiy vosita sifatida ekanligi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *polisemiya, sarkazm, kinoya, dramatik matn, stilistik vosita, dramatik ziddiyat, ijtimoiy tanqid*

Собиров Кахрамон Салоевич (Центр педагогического мастерства Хорезмской области, кафедра Методики преподавания языков, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент)

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ САРКАЗМА В ДРАМАТИЧЕСКИХ ТЕКСТАХ

Аннотация. *В статье представлены научные и практические выводы о том, что сарказм обогащает художественный слой драматического текста, усиливает его социальное воздействие, делает речь персонажа живой, убедительной и впечатляющей, а также позволяет зрителю не только наблюдать за событиями, но и делать из них моральные выводы. Подчеркивается, что сарказм в образцах узбекской драматургии является важным стилистическим приемом, служащим художественной цели, усиливающим драматический конфликт и доставляющим эстетическое удовольствие зрителю.*

Ключевые слова: *полисемия, сарказм, ирония, драматический текст, стилистический прием, драматический конфликт, социальная критика.*

Sobirov Qahramon Saloyevich (Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, associate professor, Department of Language Teaching Methodology, Khorezm Regional Center of Pedagogical Skills)

THE USE OF SARCASM IN DRAMATIC TEXTS

Annotation. *The article presents scientific and practical conclusions about the fact that sarcasm enriches the artistic layer of a dramatic text, increases its social impact, makes the character's speech lively, convincing and impressive, and allows the viewer not only to observe events, but also to draw moral conclusions from them. It is emphasized that sarcasm in the samples of Uzbek dramaturgy is an important stylistic tool that serves an artistic purpose, enhances dramatic conflict and gives aesthetic pleasure to the viewer.*

Keywords: *polysemy, sarcasm, irony, dramatic text, stylistic tool, dramatic conflict, social criticism.*

Kirish (Introduction). Polisemiya hodisasi tilshunoslikda so'z ma'nolarining kengayishi, ko'p qavatli mazmun hosil qilishi orqali tilning semantik imkoniyatlarini ifodalovchi asosiy hodisalardan biridir. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda yaratilgan o'zbek dramalari, ya'ni sho'ro mafkurasi, sotsrealistik uslub, senzura va ideologik cheklovlar ta'sirida shakllangan, ammo murakkab badiiy ifoda vositalariga ega asarlarda polisemiya vositasi orqali ko'p ma'noli, istehzo, kinoyaviy ma'no qatlamlari yaratilib, bu asarlarning chuqur tahlilini taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Sarkazm – kimsaning ustidan kulish, masxara qilish; masxara, mazax va uning, odatda, gap-so'z, mimika va shu kabilar zamirida yotuvchi ifodasi [1].

Sarkazm va kinoya, ikkalasi ham istehzoli kulgi turlari bo'lib, so'zning to'g'ridan to'g'ri ma'nosiga teskari ma'no ifodalaydi, lekin sarkazm qahr-g'azab va nafrat ohangida bo'lib, obyektni yer bilan yakson etishni maqsad qiladi, kinoya esa, ko'pincha, "beozor" yoki "hazil" shaklida bo'lib, uning ostida jiddiylik yoki gumonsirash yashirinadi, shuningdek, kinoya yumshoqroq bo'ladi, sarkazm esa keskinroq va tahqirlovchi. Sarkazm (yunoncha: sarkasmos, sarkaro – go'shtni nimtalayman, pora-pora qilaman) – komiklik turi, badiiy uslub vositalaridan biri; masxaralab, murosasiz kulgi asosiga qurilgan fikr-mulohaza. Zaharxanda, istehzoli achchiq kinoya [2].

Tilshunoslik tarixida polisemiyaga oid nazariy qarashlar ingliz va rus olimlari – D.A.Cruse [3], J. Lyons [4], G.Lakoff [5], V.C.Booth [6], V.V.Vinogradov [7], Y.D.Apresyan [8], T.V.Bulygina [9], A.B. Kalinin [10] kabi tilshunos olimlarning izlanishlarida polisemantik birliklarning semantik tuzilishi, ularning kontekst va vaziyatga bog'liq talqinlari, shuningdek, mazkur hodisaning madaniy hamda ijtimoiy omillar bilan aloqador jihatlari atroflicha tadqiq qilingan.

O‘zbek tilshunosligida T.Aliqulov [11], M.Mirtojiyev [12], M.Hakimova, Sh.Maxmaraimova [13], G.Qurboniyazov [14], G.Roziqova [15] kabi olimlar ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O‘zbek adabiyotida Hamza, A.Qahhor, M. Shayxzoda, S.Abdulla, H.Olimjon, J.Jabborov, U.Ismoilov, S.Ahmad kabi dramaturglar asarlarida polisemik birliklarning g‘oya, mafkura va shaxs obrazini ochib berishdagi roli mavjud bo‘lsa-da, bu holat tilshunoslik jihatidan izchil va tizimli tadqiq etilmagan. Bugungi kunga qadar o‘zbek dramatik asarlarida personajlar nutqi asosida sarkazmning zamonaviy lingvopoetik, sotsiolingvistik va pragmatik mezonlarda ilmiy tahlili olib borilmagan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). U.Ismoilovning “Rustam” dramasida so‘zlovchining tanbehi, zaharxandasi, gap achinish alamida aytilgani ko‘rinadi.

Rustam

U sizga non berar, go‘yo jon berar,

Siz esa unga bir boqimdi kabi.

Siz ishlang, hech tinmang, o‘sha yashasin,

Yana u xo‘jayin!

Demak, bunday paytda nutq sarkazm darajasiga ko‘tariladi, achchiq zaharxanda, istehzoli ta’na, piching ifodalanadi.

Rustam xo‘jayin haqida gapirayotgandek: “Non beradi, jon beradi”, “xo‘jayin” deb ta’riflaydi. Go‘yoki xo‘jayin ulug‘, mehnatkashlarga hayot berayotgan inson sifatida ko‘rsatilmoqda. Bu gaplarning barchasi *achchiq istehzo* bilan aytilgan. “Non berar, go‘yo jon berar” degani, aslida, *xo‘jayin mehnatkashning qonini so‘rib, ozgina non tashlab beradi* degan mazmunga ega. “Siz ishlang, hech tinmang, o‘sha yashasin” – xo‘jayinning yashash manbai mehnatkashlarning mashaqqatidan ekanini masxarali ohangda ochib beradi. “Yana u xo‘jayin!” degan jumla esa *adolatga zid tuzumni masxara qilishdir.* Oddiy kinoyadan farqli ravishda, bu yerda ohang *achchiq, qahrli va pichingli.* Rustam xo‘jayinning “ulug‘ligi”ni emas, balki *uning parazitlik mohiyatini fosh etmoqda.* Bu sarkazm orqali dramaturg jamiyatdagi *adolatning buzilishi, mehnatkashlarning ezilishi*ni ochiq fosh qiladi. O‘quvchi yoki tomoshabin gapning ziddiyati orqali xo‘jayinga nisbatan nafratni his qiladi. Rustamning bu nutqi sarkazmning aniq namunasidir: tashqi tomondan xo‘jayinni maqtayotgandek, aslida, uni achchiq zaharxanda bilan fosh qiladi. Gapdagi “non berar – jon berar”, “siz ishlang – u yashasin” kabi parallel qurilmalar *pichingning kuchini* yanada oshiradi.

Davlatpanoh, muxtasiblar urug‘i borkan,

Olmalarning urug‘iga gullash qayoqda?! (“Mirzo Ulug‘bek”)

Yuqoridagi misolda Bobo Kayfining muxtasiblar haqidagi fikri ham sarkazmning bir ko‘rinishdir. Chunki sarkazm ko‘chma ma’noga ega bo‘lmasa ham, muallifning tasvirlanayotgan voqea-hodisaga munosabatini ko‘rsatadi. Bu ham achchiq kulgi, ta’naga asoslangan bo‘ladi.

Personaj nutqida qo‘llangan zaharxanda ba’zan ayblov, haqorat darajasiga ko‘tarilishi mumkin. Komil Yashinning “O‘lim bosqinchilarga” dramasida Mariya: Ey sharmanda! Shuni bilki, bosqinchi fashist oyoqlaridan it ham hazar qiladi! Lekin sen *uni yala, o‘p!*

Qodir

Oqiz, o‘ldir, zindonga sol, xudo qil,

Xalqda yana kuchli g‘azab paydo qil! (“Tohir va Zuhra”)

Gapning boshida haqoratli murojaat “sharmanda” *zaharxanda ohangi* ishlatilmoqda. Mariya fashistga qarshi turgan kishini emas, balki unga yon bosayotgan, xoinlik qilayotgan odamni masxara qiladi. “It ham hazar qiladi” degani, *hatto eng past hayvon ham nafratlanuvchi narsani sen ulug‘layapsan,* degan og‘ir haqoratdir. Bu sarkazm *oddiy kinoyadan o‘tib,* ochiq *ayblov va keskin haqorat*ga aylanadi.

“Oqiz, o‘ldir, zindonga sol, xudo qil, Xalqda yana kuchli g‘azab paydo qil!” Bu yerda *piching* mavjud: xuddi zolimning qilayotgan ishlari “*sadoqat*” yoki “*qudrat*” belgisi kabi ko‘rinadi. Aslida esa Qodir zolimlarning zulmini ochib tashlamoqda. “*Xudo qil*” deyishi – *istehzoli ayblov*, chunki zolim o‘zini xudo o‘rniga qo‘yadi.

Sarkazmning personaj nutqida kuchli ifoda vositasi ekanligini quyidagi misollarda ham kuzatsa bo‘ladi.

Zuhra. Lekin, sigirning qulog‘iga tushgan kanaday, erni so‘rib yotish ham yaxshi kasb.

Oqila. Men boshqa narsaga – yurtimizda hali ham insonlik qadr-qiymatini bilmagan, xotin degan nomga isnod keltiradigan makiyonlar borligiga xafa bo‘laman. (“Og‘riq tishlar”)

Abdurazzoq

Mamlakatning hukmdori va qiblagohi,

Fuqaroning g'amin yegan pushti-panohi,
Yetti iqlim olimlari "ustozim" degan,
Ulug' zotga bir pastkashning masxaraligi
Na tarixda ko'ringan bu va na ertakda. ("Mirzo Ulug'bek")

Zuhra: *"Sigirning qulog'iga tushgan kanaday, erni so'rib yotish ham yaxshi kasb"* – bu yerda qattiq *zaharxanda* bor. "Kanaday so'rib yotish" obrazi orqali ayollarni eriga yopishib yashaydigan, parazit sifatida tasvirlash orqali masxara qiladi. Bu ochiq istehzo.

Oqila: *"Xotin degan nomga isnod keltiradigan makiyonlar borligiga xafa bo'laman"* – bu ham zaharxanda ohangida aytilgan. "Makiyon" (tovuqqa nisbatan) so'zi ayollarning sha'nini kamsituvchi metafora sifatida qo'llangan. Bu ham *haqoratli piching,* ijtimoiy tanqid darajasiga ko'tarilgan. Bu dialog orqali muallif jamiyatda ayollarning ijtimoiy mavqei, erkaklarga qaramlik masalasini *satira va istehzo vositasida* fosh qiladi.

Abdurazzoq nutqi: *"Mamlakatning hukmdori va qiblagohi, fuqaroning g'amin yegan pushti-panohi..."* – bu yerda, dastlab, *balandparvoz epitetlar* va *mubolag'a* orqali ulug' hukmdor madh etilayotgandek ko'rinadi. Ammo keyin *"Ulug' zotga bir pastkashning masxaraligi na tarixda ko'ringan bu va na ertakda",* degan o'rinda *istehzoli teskari ta'sir* paydo bo'ladi: ya'ni, shuncha ulug' hukmdorni pastkash odamning kamsitishi – *kulgi va masxara*ga sabab bo'ladi. Bu nutqda *sarkazm kinoya bilan uyg'unlashib,* siyosiy-huquqiy adolatsizlik, jamiyatdagi mantiqsiz holatlar tanqid qilinadi.

"Og'riq tishlar"dagi misol *ayollar sha'niga nisbatan ijtimoiy tanqid.* "Mirzo Ulug'bek"dagi misol *ulug' hukmdorning qadrsizlantirilishi ustidan istehzo.* Ikkisida ham zaharxanda oddiy kulgidan chiqib, *keskin tanqid va haqorat darajasiga* ko'tarilgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Demak, sarkazm dramatik matnning badiiy qatlamini boyitib, uning ijtimoiy ta'sirchanlik darajasini oshiradi. Ular personaj nutqini jonli, ishonarli va ta'sirchan qiladi, tomoshabinga esa nafaqat voqealarni kuzatish, balki ulardan ma'naviy xulosa chiqarish imkonini beradi. Demak, o'zbek dramaturgiyasi namunalarida sarkazm badiiy maqsadga xizmat qiluvchi, dramatik konfliktni kuchaytiruvchi hamda tomoshabinga estetik zavq bag'ishlovchi muhim uslubiy vosita sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). https://izoh.uz/word/istehzo
(2). https://uz.wikipedia.org/wiki/arkazm#cite_note-1
(3). Crus D.A. (1986). Lexical semantics. Cambridge University Press, p. 322.
(4). Lyons J. (1977). Semantics (Vol. 2). Cambridge University Press, p. 550.
(5). Lakoff G. (1987). Women, Fire, and Dangerous Things. University of Chicago Press, p. 43.
(6). Booth, W.C. (1974). A Rhetoric of Irony. University of Chicago Press. p. 292.
(7). Виноградов В.В. (1953). О языке художественной литературы. М., Гослитиздат, с. 256.
(8). Апресян Ю.Д. (1974). Лексическая семантика. Синонимические средства языка. М., "Наука", с. 122.
(9). Булыгина Т.В., Шмелев А.Д. (1990). Лингвистическая концепция подтекста. М., "Наука", с. 47; Кубрякова Е.С. (1996).
(10). Калинин А.В. Лексика русского языка. М., МГУ, 1978, 232 с.
(11). Аликулов Т. Полисемия существительных в узбекском языке. Автореф. дисс. канд. филол. наук. Т., 1966.
(12). Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. Тошкент, "Фан", 1975, 136-бет.
(13). Maxmaraimova Sh. Hozirgi o'zbek tili (leksikologiya). Toshkent, 2021, 148-bet.
(14). Қурбониязов Г. Ҳозирги ўзбек ва қорақалпоқ адабий тилларидаги қаттиқ, қатты лексемаларининг қиёсий таҳлили. Филол. фан. номз. дисс., Тошкент, 1998, 129-бет.
(15). Розиқова Г.З. Ўзбек тилида синтактик полисемия. Филол. фан. номз. дисс., Фарғона, 1999, 79-бет.

Odilov Orifjon Odiljon o'g'li (Jizzax davlat Pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi; e-mail: orifjon-odilov.mail.ru)

RUHIYAT TASVIRIDA ONG OQIMINING O'RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Nega?" hikoyasi misolida ong oqimi usulining badiiy-falsafiy va psixologik ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu metod orqali qahramon ichki kechinmalari, ijtimoiy adolatsizlik, urush fojiasi hamda inson ruhiyatining murakkab qatlamlari izchil yoritilgan.*

Kalit so'zlar*: ong oqimi, ruhiyat tasviri, ichki monolog, psixologik nasr, modernizm, Vilyam Jeyms.*